

O'SMIR YOSHIDAGI O'QUVCHILARNING TAFAKKUR VA DIQQATINI O'RGANISH NATIJALARI TAHLILI

Babajanov Maqsadbek Ulug'bekovich

Ma'mun - Universitet NTM, o'qituvchi

maqsadbekbobojonov2@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada tafakkur va diqqat haqida umumiy tushuncha va o'smirlarda tafakkur va diqqatning darajalarini aniqlash uchun olingan 6 ta test natijalari tahlili keltirilgan.

Kalit so'zlar: *Tafakkur, diqqat, o'smirlar, test, tahlil, ta'lim.*

ABSTRACT

The article presents a general understanding of thinking and attention and an analysis of the results of 6 tests taken to determine the levels of thinking and attention in adolescents.

Key words: *Thinking, attention, teenagers, test, analysis, education.*

KIRISH

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy sharoitida pedagogika va psixologiyaning eng muhim muammolaridan biri yuksak axloqiy va barkamol shaxsni tarbiyalashdir. Inson ma'naviy kamolotga faqat o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalash jarayonida erisha olishini hisobga olsak, uning sifat komponentini bilim deb atash mumkin. Bilimni shakllantirishning dastlabki bosqichida maktab ta'limi va tarbiyasi katta rol o'ynaydi. U kognitiv jarayonning rivojlanishiga to'g'ri yo'nalish berishi, uning mexanizmlarini sayqallashi va kerakli tarkib bilan to'ldirishi mumkin. Tafakkur va diqqat psixologik jarayonlar bo'lib, o'quvchilarning o'qish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Tafakkur o'quvchining ma'lum bir mavzu yoki masala haqida o'ylash, tushunish va xulosaga kelish qobiliyatini ifodalaydi. Diqqat esa o'quvchining ma'lum bir obyektga yo'naltirilgan psixik kuchini anglatadi. Bu ikkala jarayonning rivojlanishi o'quvchining o'qish saviyasini va ilmiy faoliyatini yaxshilaydi. Bu maqola o'smir yoshidagi o'quvchilarning tafakkur va diqqatini o'rganish uchun ishlab chiqilgan testlar orqali olingan natijalar tahlil qiladi. Shuningdek, testlar orqali olingan natijalar asosida o'smir yoshidagi o'quvchilarning tafakkur va diqqatining darajasi, xususiyatlari va bog'liqliklari haqida ma'lumot beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib, u orqali sezgi a'zolarimizda bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimiz orqali aks ettiramiz. Demak, tafakkur deb narsa va hodisalar o'rtasidagi eng muhim bog'lanishlarni ongimizda aks ettirilishiga aytiladi.

Tafakkur tushunchasining mazmun mohiyati olimlar tomonidan turlicha ifodalangan. Jumladan:

M.V.Gamezo fikricha "tafakkur voqelikning umumlashgan holda va so'z hamda o'tmish tajriba vositalarida aks ettirilishi" hisoblanadi. U tafakkur umumlashgan so'z vositasida atrof-muhit hodisalarini aks ettirishi mumkin deydi.

A.V.Petrovskiy tafakkurni "Tafakkur - ijtimoiy sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilish, uni bivosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir" deb ta'riflaydi.

V.V.Bogoslovskiy darsligida ham unga berilgan ta'rifda tafakkurning bilvosita va umumlashgan xususiyatlari aks etgan. F.N.Gonobolin, K.K.Platonov darsliklarida ham shunga o'xshash fikrlar uchraydi.

Keltirilgan fikrlardan O.K.Tixomirovning darsligidagi ta'rif to'liqroq deb hisoblaniladi. Unda "Tafakkur - bu o'z mahsuloti bilan voqelikni umumlashtirib, bivosita aks ettirishni xarakterlaydigan umumlashtirish darajasi va foydalanadigan vositalarga hamda o'sha umumlashmalar yangiligiga bog'liq ravishda turlarga ajratishdan iborat jarayon, bilish faoliyatidir" deb yozilgan.

Tafakkur operatsiyalariga quyidagilar kiradi: analiz, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash va umumlashtirish, tasniflash va tizimga solish

Analiz - narsa va hodisalarni fikran va amaliy jihatdan tahlil qilish.

Sintez – narsa va hodisalarni analiz qilishda bo'lingan ayrim qismlarini, bo'laklarini birlashtirish.

Taqqoslash-operatsiya vositasi bilan narsa va hodisalarni bir-biriga o'xshashligi va farqlarini aniqlaydi.

Abstraksiyalash- moddiy dunyodagi narasa va hodisalarning muhim xususiyatlarini farqlab olib, ulardan narsa va hodisalarning muhim bo'lmagan xususiyatlarini fikran ajratib olish.

Umumlashtirish – tafakkurda aks etgan narsalarning o'xshash muhim belgilarini bitta tushuncha qilib, fikrda birlashtirishdir.

Konkretlashtirish- hodisalarning ichki bog'lanish va munosabatlaridan qat'iy nazar bir tomonlama fikr yuritish operatsiyasidir.

Klassifikatsiyalash – bir turkum narsalarning bir-biriga o'xshashligiga va

boshqalarning farq qilishiga qarab turkumlarga ajratish.

Sistemashtirish - bunda ayrim narsalar, faktlar, hodisa va fikrlar muayyan tartibda makondagi, vaqtdagi tutgan o‘rniga ko‘ra yoki mantiqiy tartibda joylashtiriladi.

Tafakkur shakllariga esa quyidagilar kiradi:

Hukm- narsa va hodisalarga nisbatan o‘z fikrimizni bildiradigan gap. U belgi va xususiyatlarni tasdiqlaydi yoki inkor qiladi.

Xulosa chiqarish – ikki yoki undan ortiq hukmlardan yangi hukm hosil qilish.

Tushuncha - bu narsa yoki hodisani eng muhim va eng asosiy xususiyatlariga asoslangan tasavvurdir. Tushuncha yordamida biz narsa yoki hodisani juda qisqa qilib yozishimiz mumkin.

Psixologiya fanida tafakkur turlari topshiriq xususiyatiga, fikr yoyiqligiga, fikrning originallik darajasiga qarab, quyidagicha shartli klassifikasiya qilinadi.

Professor E.G‘.G‘ozievning "Umumiy psixologiya" darsligida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi:

<i>Tafakkur turlari</i>	
Shakliga ko‘ra	Ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli,
Topshiriq xarakteriga ko‘ra	Nazariy, amaliy, ixtiyorsiz, ixtiyoriy
Fikr yoyiqligiga ko‘ra	Konkret, abstrakt, realistik, autistik intuitiv, diskursiv
Fikrning originallik darajasiga ko‘ra	Reproduktiv, produktiv, ijodiy, vizual, fazoviy

V.Karimovanning “Psixologiya” o‘quv qo‘llanmasida tafakkur turlari quyidagicha klassifikasiya qilinadi.

<i>Tafakkur turlari</i>	
Shakliga ko‘ra	Ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli, mantiqiy
Ko‘riladigan masalaning xarakteriga ko‘ra	Nazariy, amaliy
Ijodiylik elementiga ko‘ra	Konvergent, divergent
Yangiligi va noyobligiga ko‘ra	Reproduktiv, produktiv (ijodiy)

A.V.Petrovskiy muharrirligida chop etilgan, “Umumiy psixologiya” darsligida tafakkurni quyidagi turlari ajratib ko‘rsatiladi: ko‘rgazmali-harakat, ko‘rgazmali-obrazli, mavhum nazariy tafakur turlari va boshqalar.[1.b,202-203]

Tafakkur bilishning o‘ziga xos jarayoni bo‘lib, uning sifat va xususiyatlarini bilish

faoliyatining mazmundorligi, mustaqillik, epchilik, samaradorlik, fikrning kengligi, tezligi, chuqurligi va boshqalar belgilaydi.

Sobiq sovet psixologiyasi fanining asoschilaridan biri L.S.Vigotskiy tafakkur muammosini o'rganib, ko'proq umumlashtirish va abstraksiyalash ustida to'xtalib, ularni gruppalariga, turlarga ajratib o'rganishni tavsiya qiladi. Bundan tashqari, umumlashtirish va mavhumlashtirishning yuqori bosqichi yuzasidan mulohaza yuritib, "umumiylikni umumlashtirish", "mavhumni mavhumlash" degan tushunchalarni birinchi bo'lib psixologiyaga olib kiradi[2].

N.D.Levitov o'smirlarda tafakkur muammosining kechishini o'rganib, asosiy e'tiborini quyidagi ko'rsatgichlarga qaratadi: tafakkurning mustaqilligi, o'quv materialining tez va puxta o'zlashtirilishi, aqliy topqirlik, muammo mohiyatiga chuqur kirib borish va tafakkurning tanqidiyligi. Bizningcha, bu mezonlar tafakkur o'sishini to'liq aks ettirmaydi, chunki baholash, sabab-oqibat, muammoni hal qilish va mantiqiy fikr yuritish singari tarkiblar ham zarurdir.

An'anaga ko'ra, tafakkur insonning kognitiv faoliyati sodir bo'ladigan ruhiy jarayonlarning eng yuqori hodisasi sifatida tushuniladi. Tafakkur ob'ektiv voqelikni obrazlar, hukmlar, tushunchalarda aks ettiruvchi jarayondir. Odamlar dunyo tartibining yashirin naqshlarini ochib berish ("narsalarning mohiyatini" bilish), sodir bo'layotgan voqealarning tobora murakkab mazmunli talqinlarini qurish, mavjud bilimlarni tizimlashtirish va yangi g'oyalarni yaratish, kontseptsiyalarni yaratish qobiliyatiga ega voqelikning har qanday jihatiga oid nazariyalar, ya'ni ular dunyoni tushunish (idrok etish) qobiliyatiga ega[3].

O'quv va kundalik hayot tajribasini o'rganib, bir qator mualliflar o'smirlarning aqliy faoliyati yangi bilimlarni olish, kognitiv jarayonlarni rivojlantirish uchun zaruriy asosdir, degan xulosaga kelishadi. Har kuni o'smir vaziyat o'zgaranda hal qilinishi kerak bo'lgan muammoli vaziyatlarga duch keladi. Ushbu muammolarni hal qilish, ularning harakatlarini bashorat qilish va rejalashtirish uchun, G.T.Shavaliyevning fikricha, o'smirning mantiqiy tafakkuri yuqori darajada rivojlangan bo'lishi kerak: o'z fikrini aniq ifoda eta olish, to'liq mantiqiy asoslash kerak[4].

M.N.Shardakov o'quv jarayonida fikr yuritish operatsiyalarining rivojlanishini va uni oshirishning usullarini tahlil qiladi. U o'quvchilarning tafakkur operatsiyalarini tarkib toptirish va ilmiy tushunchalarni shakllantirish qobiliyatini oshirishning ta'limdagi ahamiyatini va natijalarini ko'rsatadi. U tafakkur shakllarining mantiqiyliги va ob'ektivligi bilan bog'liq masalalarni ham o'rganadi. U xulosa chiqarishning turli yo'llarini va ularning o'quvchilar yosh davriga mosligini bayon etadi.

Maktab ta'limi va mustaqil bilim olish faoliyati ta'siri ostida, o'smirda analitik-sintetik faoliyat jadal sur'at bilan rivojlana boshlaydi. Shuning uchun unda sabab va

natijani izohlash uquvi mustahkamlanib boradi. O'quvchi materiallarning muhim belgilarini ajratishga, keng ma'noli umumlashtirishni amalga oshirishga harakat qiladi[2.b,153].

O'smirlik davrida o'quvchilar fan asoslarini mavhum tafakkur bilan o'zlashtirishadi. Ular yaqqol-obrazli tafakkurdan abstrakt tafakkurga o'tishda kamol topadilar. O'smirlar materiallarni analiz qilish va umumlashtirish qobiliyatini rivojlantiradilar. Ta'lim jarayonida ular ko'plab mavhum tushunchalarni egallaydilar.

O'smirlik davrida bolalar psixikasi va intellekti keskin rivojlanadi. Ular fanlarni yuqori darajada tushunib, mavhumlarni umumlashtira oladilar. Ularning analitik-sintetik faoliyati va sabab-natija bog'lanishini izohlash uquvi ham kuchayib boradi.

Yaqqol-obrazli tafakkur o'smirlar fikr yuritishida muhim. Mavhum tafakkur o'sishi bilan birga, ko'rgazmali tafakkur saqlanib qoladi va rivojlanadi.

Mustaqil fikrlash va aqlning tanqidiyligi o'smirlarda tez o'sadi. O'zini anglash jarayonida o'z fikrlarini, qarashlarini va mulohazalarini bildirishadi. O'qituvchi, otana, kitob va darsliklarga tanqidiy qaraydi. O'qituvchining mulohazasidan xato va kamchiliklarni topib, o'z gapida turib, fikrlarga e'tiroz bildirib va bahslashadi.

O'smir yoshidagi o'quvchilarda diqqatni o'rganish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu bevosita o'quv muvaffaqiyatiga olib borishi mumkin.

Diqqat tushunchasiga olimlar tomonidan bir qator ta'riflar keltirilganligini ta'kidlash mumkin. P.I.Ivanov tomonidan diqqat deb-ongni bir nuqtaga to'plab muayyan bir ob'ektga aktiv qaratilishga aytiladi. F.N.Dobrinin, N.V.Kuzmina, I.V.Straxov, M.V.Gamezo, N.F.Gonobolin va boshqalarning fikricha, diqqatning vujudga kelishi ongning bir nuqtaga to'planishi ong doirasining torayishini bildiradi, go'yoki ong doirasi bir muncha tig'izlanadi[1.b,115]

E.B.Pirogovaning ta'kidlashicha, diqqat - bu ongning biror narsaga yo'naltirilganligi va uning faolligini oshirishni talab qiladigan jarayon. Diqqat odamning barcha faoliyatlarida zarur bo'lgan muhim xususiyatdir.

Psixik jarayonlarning, shu jumladan sezgilarning barcha turlarini to'liq rivojlanishi ko'p jihatdan ma'lum shartlarga bog'liq bo'lib, ular orasida e'tibor alohida ahamiyatga ega[5].

Diqqatning inson hayotidagi roli kattadir. Jumladan, fransuz olimi Kyuve geniellikni chidamli diqqat deb ta'riflashi, Nyutonning kashfiyot fikrni doimo shu narsaga qaratilish jarayoni deyishi, K.D.Ushinskiyning "diqqat ruhiy hayotimizning shunday yagona eshigidirki, ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali o'tib kiradi" degan fikrlari uning ahamiyati qanchalik darajadiligini ko'rsatadi.

Diqqat turlariga quyidagilar kiradi:

Diqqatning aktivligiga qarab - ixtiyorsiz, ixtiyoriy va ixtiyoriydan so'nggi diqqat.

Diqqatning ob'ektiga qarab - tashqi va ichki diqqat. Diqqatning faoliyat turlariga qarab - individual, guruhviy va jamoaviy diqqat. Ayrim adabiyotlarda diqqatning ikkita va ayrimlarida uchta deb ko'rsatiladi. Ular ixtiyorsiz diqqat, ixtiyoriy diqqat va ixtiyoriydan so'nggi diqqat turlaridan iboratdir.

Ixtiyorsiz diqqat - biz xohlamasak ham ta'sirga uchragan narsa yoki hodisaga e'tibor berishdir.

Ixtiyoriy diqqatning ma'nosi, biz maqsadli va ongli ravishda ma'lum bir obyekt yoki hodisaga diqqatimizni qaratishimizdir.

Diqqatning kuchi va barqarorligi, diqqatning ko'lami, diqqatning bo'linuvchanligi va diqqatning ko'chuvchanligi - bu diqqatning asosiy xususiyatlari. Quyida diqqatning xususiyatlari haqida qisqa va aniq ma'lumot beramiz.

Diqqatning kuchi va barqarorligi - bu diqqatning bir obyektga qanchalik kuchli va uzun muddat saqlanishini aks ettiradi.

Diqqatning ko'lami - bu diqqatning bir vaqtning o'zida nechta obyektga qaratilishi mumkinligini bildiradi.

Diqqatning bo'linuvchanligi - bu diqqatning bir vaqtning o'zida turli xil obyektlarga bo'linib ketishini ifodalaydi.

Diqqatning ko'chuvchanligi - bu diqqatning bir obyektidan boshqasiga tez-tez o'tkazilishi yoki o'zgarishi haqidagi xususiyatdir.

O'smirlar davrida diqqatning rivojlanishi psixologik jarayonlarning muhim qismidir. Diqqatning rivojlanishi o'smirlarning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liqdir. O'smirlarda diqqatning nazariyalari turli yo'nalishlarda ishlab chiqilgan.

Quyidagi nazariyalarga kengroq ta'rif beramiz:

Diqqatning mantiqiy rivojlanish nazariyasi. Bu nazariya J.Piage tomonidan taklif qilingan va diqqatning rivojlanishini mantiqiy fikrlash darajalariga bog'laydi. Piagega ko'ra, o'smirlik davrida diqqat ikki bosqichda rivojlanishi mumkin: konkret amaliyotlar bosqichi (7-11 yosh) va formal amaliyotlar bosqichi (11-15 yosh). Har bir bosqichda diqqatning har xil turlari paydo bo'ladi: konsentratsiya, selektsiya, boshqaruv, koordinatsiya va integratsiya.

Diqqatning psixofiziologik rivojlanish nazariyasi. Bu nazariya Luriya tomonidan taklif qilingan va diqqatning rivojlanishini miyaga keladigan impulslarning tahlili va sintezi jarayonlariga bog'laydi. Luriyaga ko'ra, o'smirlik davrida diqqatning uchta tizimi rivojlanadi: avtomatik tizim, proizvol tizim va regulyator tizim. Har bir tizim diqqatning boshqa jihatlarini ta'minlaydi: avtomatik tizim - diqqatni saqlash va uning stabil bo'lishini; proizvol tizim - diqqatni yo'naltirish va uning moslashuvchan bo'lishini; regulyator tizim - diqqatni boshqarish va uning samarali bo'lishini.

Diqqatning sotsial-kognitiv rivojlanish nazariyasi. Bu nazariya Vigotskiy

tomonidan taklif qilingan va diqqatning rivojlanishini ijtimoiy-madaniy muhitga bog‘laydi. Vigotskiyga ko‘ra, o‘smirlik davrida diqqatning ikki xil shakli paydo bo‘ladi: ichki (o‘z-o‘zidan) va tashqi (boshqalardan). Ichki diqqat o‘smirlarning o‘z fikrlarini, his-tuyg‘ularini va harakatlarni nazorat qilishlariga yordam beradi. Tashqi diqqat o‘smirlarning boshqa odamlar bilan aloqa qilishlariga, ularning nuqtai nazarlarini anglashlariga va ular bilan hamkorlik qilishlariga yordam beradi.

Demak, yuqoridagi ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki o‘smirlarda aynan tafakkur va diqqatni o‘rganish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

NATIJALAR

Bizning asosiy tadqiqotlarimizda 60 nafar sinaluvchilar ishtirok etdi. Ular 14-15 yoshlardagi o‘smir yoshidagi bolalardan iborat.


Tadqiqotimizni O‘zbekiston Respublikasi, Xorazm viloyati, Xiva shahridagi 15-sonli umumta‘lim maktabining 8-sinflarida olib bordik. Dastlab biz o‘smirlarda tafakkur darajasini aniqlash uchun “R.Kettelning madaniy muhit ta‘siriga bog‘liq bo‘lmagan testi Intellect testi (CFIT)”, metodikasini o‘tkazdik.

Chastotali tahlil.

1-jadval

“Intellect testi (R.Kettelning madaniy muhit ta‘siriga bog‘liq bo‘lmagan testi (CFIT))”

R.Kettelning madaniy muhit ta‘siriga bog‘liq bo‘lmagan testi (CFIT) natijalar tahlili	Soni	Foizi
Juda yuqori(130 va yuqori)	0	0
Yuqori (120-129)	0	0
O‘rtachadan yuqori (110-119)	0	0
O‘rtacha (100-109)	1	1,7
O‘rtacha (90-99)	1	1,7
O‘rtachadan past (80-89)	7	11,7
Past(70-79)	21	35,0
Juda past(70 va undan past)	30	50,0
Jami	60	100,0



Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlarning sifat tahlili shuni ko'rsatadiki tadqiqotimiz davomida o'quvchilar bilan ushbu metodikani o'tkazganimizda IQ darajasi juda yuqori, yuqori, o'rtachadan yuqori o'quvchilar aniqlanmadi. Testning o'rtacha ko'rsatkichi 90-110 hisoblanishi va undan yuqorilab borishi tekshiriluvchining zehning o'tkirligidan, pastlashishi esa aqliy rivojlanishning orqada qolganidan dalolat berishini hisobga olganda bu ko'rsatkichlar o'smirlar uchun me'yor hisoblanadi. Testni o'tkazishda sinaluvchilarga bu test ikki qismdan iboratligi, har bir qism to'rt seriyadan tashkil topganligi va barcha test vazifalari grafik ko'rinishga ega ekanligi ta'kidlandi. Testning har bir seriyasi uchun beriladigan vaqt cheklanganligi haqida ma'lumot berildi. Ular belgilangan vaqt mobaynida testni javoblar varaqasiga belgilab chiqishdi. Nazorat va tajriba guruhimiz sinaluvchilarida IQ darajasi 8 ta mezondan 5 tasi bo'yicha: o'rtacha, o'rtacha, o'rtachadan past, past va juda past ko'rsatkichlar bo'yicha natijalarga erishildi. Sinaluvchilarning 1,7% ida, ya'ni 1 nafarida IQ darajasi o'rtacha ekanligi ma'lum bo'ldi. U 100-109 ball oralig'ida 102 ball bilan baholandi. Yana 1 nafar o'quvchida IQ darajasi o'rtacha 1,7 % da ekanligi aniqlandi. U 90-99 ball oralig'ida 93 ball bilan baholandi. IQ darajasi o'rtachadan past ko'rsatkich ko'rsatgan o'quvchilar 7 nafar bo'lib, ular 80-89 ball oralig'idagi 11,7% ko'rsatkichlarni qayd etishdi. 21 nafar o'quvchida IQ darajasi 70-79 ball oralig'ida bo'lib, ular 35% ni tashkil qilishdi. Qolgan 30 nafar 50% o'quvchida IQ darajasi juda past ko'rsatkichni qayd etdi. Bu o'quvchilar topshiriqlarni bajarishda qiynalishdi.


Bu metodikaning natijalarini hisobga olib intellekt darajasi past va juda past natija ko'rsatgan o'quvchilar jami o'quvchilarning 85%ni tashkil qilishini ko'rishimiz mumkin. Yuqoridagi natijalarni hisobga olib o'smirlarda tafakkurni rivojlantiruvchi metodikalarni o'tkazish zarur degan xulosa chiqarishimiz mumkin.

Tadqiqotimizning ikkinchi metodikasi “Analitik tafakkurni o‘rganish” metodikasi bo‘lib, guruh juftlarga bo‘lindi, ularning har birida sinaluvchi va eksperimentator rollari taqsimlandi, keyinchalik, tadqiqot ishtirokchilari rollarni almashtirishdi. Sinaluvchilarga ma’lum bir ketma-ketlikda joylashgan, 15 qator sonlar yozilgan qog‘oz blankasi berildi. Eksperimentator sub’ektlar tomonidan topshiriqni bajarish vaqtini belgilab bordi. Ko‘rsatma sifatida test blankalarida, 15 qator sonlar ketma-ketligi tasvirlangan bo‘lib, ularning har biri qanday qonuniyatlar asosida tuzilganligini aniqlashga harakat qilish so‘raldi. Ushbu qonuniyatga muvofiq, har bir qatordagi sonlar ketma- ketligiga yana ikkita raqamni qo‘shib davom ettirish talab qilinishi va ushbu vazifani bajarish uchun 7 daqiqa vaqt berilishi ta’kidlandi.

“Analitik tafakkurni o‘rganish” metodikasi bo‘yicha sinaluvchi o‘quvchilarni ko‘rsatkichlari

2-jadval

Analitik tafakkurni o‘rganish testi natijalar tahlili	Soni	Foizi
baland yoki yaxshi	2	3,3
o‘rtacha yoki qoniqarli	7	11,7
past yoki qoniqarsiz	13	21,7
juda past	38	63,3
Jami	60	100,0



Tajribamizda qatnashgan 60 nafar o‘quvchidan birortasida juda yuqori yoki juda yaxshi(14-15) ko‘rsatkich qayd qilinmaganini ko‘rishimiz mumkin. O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida 2 nafari 3,3% ko‘rsatkich bilan 11-13 ball oralig‘ida baho olib, analitik tafakkuri baland yoki yaxshi ekanligini ko‘rsatdi. 7 nafari 11,7% ko‘rsatkich bilan 8-10 ball oralig‘ida baho olib, analitik tafakkuri o‘rtacha yoki qoniqarli ekanligini ko‘rsatdi. 13 nafar o‘quvchi 21,7% analitik tafakkuri past yoki

qoniqarsiz ko‘rsatkichni qayd etdi. 38 nafar 63,3% o‘quvchi esa, topshiriqni bajarishda ancha qiynalishdi va juda past ko‘rsatkichni ko‘rsatishdi.


Bu metodikaning natijalar tahlili bo‘yicha jami juda past (63,3%) va past yoki qoniqarsiz (22%) ko‘rsatkich 85,3% o‘quvchida aniqlandi. Bundan o‘smir yoshidagi o‘quvchilarning analitik tafakkur darajasi past darajada deb xulosa chiqarish mumkin.

Tadqiqotimizning uchinchi metodikasi “Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida” bo‘lib, bu metodikani sinaluvchilarda o‘tkazishdan oldin uning mohiyati umumiy xususiyatlarga yoki ma’lum bir umumlashtiruvchi so‘z bilan mantiqiy aloqalarga ega bo‘lgan so‘zlarni tanlashga asoslanishi aytili. Ko‘rsatma sifatida hammasi bo‘lib, blankada 20 ta umumlashtiruvchi so‘zlar mavjud va ularning har biri uchun yana 5 tadan so‘zlar qatori berilgan, ulardan 2 ta so‘zni qavs oldidagi, ularni umumlashtiradigan so‘z bilan eng katta bog‘liqlikdagisini tagiga chizish so‘ralishi ko‘rsatildi. Vazifani bajarish uchun metodika ko‘rsatmasiga muvofiq 3 daqiqa vaqt ajratildi.

“Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida” metodikasi bo‘yicha sinaluvchi o‘quvchilarni ko‘rsatkichlari.

3-jadval

Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida testi natijalar tahlili	Soni	Foizi
yuqori	2	3,3
o‘rtacha	26	43,3
past	32	53,3
Jami	60	100,0



O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida 2 nafari 3,3% ko‘rsatkich bilan 9-8 ball oralig‘ida baho olib, tafakkurning umumlashtirish darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatdi. 26 nafari jami 43,3% ko‘rsatkichi bilan 7-3 ball oralig‘ida baho olib, o‘rta darajani ko‘rsatdi. 32 nafar o‘quvchi esa, 53,3% ko‘rsatkich bilan 2-1 ball oralig‘ida baho olib, past darajani ko‘rsatdi.


Yuqoridagilarni hisobga olib tafakkurning umumlashtirish darajasi 53% o‘smirlarda past va 44% o‘smirlarda esa o‘rtacha ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Bunday o‘quvchilar bilan tafakkurning bu shaklini rivojlantish bo‘yicha korreksion mashg‘ulotlar olib borish kerak deb hisoblaymiz.

O‘smirlarlarda diqqatning barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligini aniqlash uchun Burdonning “Korrektura sinovi” metodikasini o‘tkazdik. Sinaluvchilarga har qatorida 40 tadan harf yozilgan 40 qatordan iborat maxsus qog‘oz berildi. Sinaluvchilar har bir qatorda birinchi turgan harfni o‘sha qatordan topib chizib (o‘chirib) chiqishdi va metodikani o‘tkazish uchun ajratilgan vaqtni tadqiqotchi aniq hisoblab bordi. Sinov uchun 5 (ba‘zan 6) daqiqa vaqt ajratilgan bo‘lib, har minutda sinaluvchining o‘chirishga ulgurgan qatori belgilab borildi.

“Korrektura sinovi” metodikasi bo‘yicha sinaluvchi o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari.

4-jadval

Burdonning Korrektura sinovi metodikasi	Soni	Foizi
juda yaxshi	3	5,0
yaxshi	21	35,0
o‘rta	31	51,7
yomon	5	8,3
Jami	60	100,0



Yuqoridagi jadvalda sinaluvchilarning beshta me'zon bo'yicha ham ko'rsatkichlari qayd qilindi. Bunda 3 nafar o'quvchi jami 5,0 % juda yaxshi (81-100%) ko'rsatkichni namoyon qildi. Ular berilgan topshiriqni ko'rsatmaga muvofiq to'g'ri bajarishdi. Xatolar esa kuzatilmadi. Bunday o'quvchilar haqida diqqat barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligi yuqori deb xulosa chiqarish mumkin. Yaxshi (61-80%) ko'rsatkichni qayd qilgan o'quvchilar nazorat guruhida 21 nafar bo'lib jami 35,0% ko'rsatkichni tashkil qiladi. O'rta (41-60%) ko'rsatkichni namoyon qilgan o'quvchilar 31 nafar bo'lib, ular jami 51,7% ni tashkil qiladi. Bu o'quvchilarda xatolar biroz kuzatildi. Shuningdek topshiriqni bajarish tezligida ham kamchiliklar kuzatildi. Yomon (21-40%) ko'rsatkichni namoyon qilgan o'quvchilar 5 nafar bo'lib, bu jami 8,3 % foizni namoyon qildi. Ularda xatolar ko'proq kuzatildi va topshiriqni bajarish tezligida ham muammolar kuzatildi. Bunday o'quvchilarda diqqat barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligi past deb xulosa chiqarishimiz mumkin.


Yuqoridagilardan o'quvchilar diqqatining barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligi 8,3% o'quvchida past va 51,7% o'quvchida o'rta darajadiligini hisobga olib ular bilan diqqat barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligini rivojlantirish bo'yicha korreksion mashg'ulot o'tkazish kerak deb hisoblashimiz mumkin.

O'smirlarlarda diqqat hajmini tadqiq qilish uchun "Diqqat hajmini tadqiq qilish" metodikasi o'tkazildi. Bu metodikani o'tkazishda guruh juftliklarga bo'lindi, bunda har bir juftlik eksperimentator va sinaluvchidan iborat bo'ldi. Sinaluvchilarga ixtiyoriy tartibda joylashtirilgan 25 ta sondan iborat sinovchi jadval blankasi berildi. Sinaluvchilar jadvalni diqqat bilan kuzatib undagi sonlarni o'sib boruvchi tartibda ishchi jadvalga joylashtirishdi. Eksperimentator sinaluvchining xatti-harakatini kuzatdi hamda vaqtni aniq belgiladi. Vazifani bajarib bo'lganlaridan so'ng tadqiqot ishtirokchilarining rollari o'zaro almashildi. Ushbu vazifani bajarish uchun 2 daqiqa vaqt belgilandi.

"Diqqat hajmini tadqiq qilish" metodikasi bo'yicha sinaluvchi o'quvchilarning ko'rsatkichlari.

5-jadval

Diqqat hajmini tadqiq qilish metodikasi	Soni	Foizi
juda yaxshi	16	26,7
yaxshi	10	16,7
o'rta	14	23,3
past	20	33,3
Jami	60	100,0



Tadqiqot natijalarini qayta ishlab, guruhda 16 nafar o'quvchi 26,7% ni ko'rsatib diqqat hajmi ko'rsatkichi juda yaxshi (18 ta va undan ortiq) bo'lgan natijani qayd qildi. Bu o'quvchilar topshiriqni tez va aniq bajarishdi. Xatolar kuzatilmadi. 10 nafar o'quvchi jami 16,7 % ni qayd qilin yaxshi ko'rsatkichni egalladi. Bunday o'quvchilarda topshiriqni bajarishda biroz qiyinchilik kuzatildi. O'rta (12-14) ko'rsatkichni 14 nafar o'quvchi jami 23,3% ni qayd etdi. Ular topshiriqni bajarishda biroz xatolarga yo'l qo'yishdi. Past(11 ta yoki undan kam) ko'rsatkichni 20 nafar o'quvchi jami 33,3% foiz bilan qayd qildi. Bunday o'quvchilarda diqqat hajmi past darajada rivojlangan bo'lib, ular ko'plab xatolarga yo'l qo'yishdi. Bu metodika bo'yicha natijalarni umumlashtirib o'smirlarda jami 56,6% past va o'rta ko'rsatkichga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Demak, bunday o'quvchilar bilan diqqat hajmini rivojlantiruvchi mashg'ulotlarni o'tkazish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.


O'smirlarlarda diqqatning ko'chishi va bo'linishini aniqlash uchun "Shult jadvali" metodikasi o'tkazildi. Metodikani o'tkazish uchun sekundomer va rang jihatidan bir- biriga uyg'un bo'lmagan, betartib holda, mantiqiy esda saqlab qolish qiyin bo'lgan 1 dan 25 gacha qora va 1 dan 24 gacha qizil rangli raqamlar tayyorlandi. Metodika 3 ta seriyadan iborat bo'lib, 1-seriyada sinaluvchilarga jadvaldagi qora rang bilan yozilgan 1 dan 25 gacha bo'lgan raqamlarni o'sib boruvchi tartibda ko'rsatib berish taklif qilindi. Tadqiqotchichi esa uni qancha vaqtda ijro etishini sekundomer vositasida aniqlab yozib bordi. 2-seriyada tadqiqotchi tekshiriluvchidan jadvaldagi qizil raqamlarni 24 dan 1 gacha kamayuvchi tartibda ko'rsatib berishini so'radi va sekundomer yordamida topshiriqni bajarish uchun sarflagan vaqtini aniqlab yozib bordi. 3-seriyada esa, tadqiqotchi sinaluvchiga bir vaqtning o'zida galmagal: qora raqamlarni ko'payib boruvchi, qizil raqamlarni kamayib boruvchi tartibda ko'rsatib

berishni taklif qildi va topshiriqning xarakteri, uning bajarilishi uchun ketgan vaqt va yo‘l qo‘yilgan xatolarni aniqlab, qarorda qayd etdi.

“Shulte jadvali” bo‘yicha diqqatning ko‘chishi va bo‘linishini o‘rganish bo‘yicha sinaluvchi o‘quvchilarning ko‘rsatkichlari.

6-jadval

Shulte jadvali bo‘yicha diqqatning ko‘chishi va bo‘linishini o‘rganish	Soni	Foizi
yuqori 60 soniyadan kam	6	10,0
yuqori 60-90	22	36,7
o‘rtacha 91-100	5	8,3
o‘rtacha 101-120	5	8,3
o‘rtacha 121-150	11	18,3
o‘rtacha 151-180	7	11,7
o‘rtacha 181-200	4	6,7
o‘rtacha 201-250	0	0
o‘rtacha 251 va undan yuqori	0	0
Jami	60	100,0



Diqqatning ko‘chishini o‘rganish bo‘yicha topshiriqni bajarish jarayonida yuqori (60 soniyadan kam) ko‘rsatkich jami o‘quvchilarning 10% ni ya‘ni 6 nafarini tashkil qildi. Bu o‘quvchilar topshiriqni bajarishda xatolarga yo‘l qo‘yishmadi. Yuqori (60-90) ko‘rsatkichni esa 36,7% ya‘ni 22 nafar sinaluvchi qayd etdi. Bu sinaluvchilarda jami 8 ta xato kuzatildi. O‘rtacha (91-100) ko‘rsatkich 8,3% ni ya‘ni 5 nafarni tashkil qildi. Bu o‘quvchilarda jami 11 ta xato kuzatildi. O‘rtacha(101-120) ko‘rsatkich 8,3 % ni ya‘ni 5 nafar o‘quvchini tashkil qildi. Bu o‘quvchilarda 3 ta xato aniqlandi. O‘rtacha(121-150) ko‘rsatkich 18,3% ni ya‘ni jami 11 nafar o‘quvchini tashkil qildi.

Jami 10 ta xatoga yo‘l qo‘ydi. O‘rtacha(151-180) ko‘rsatkich 11,7% ni ya‘ni 7 nafar o‘quvchi tashkil qildi. O‘quvchilar jami 6 ta xatoga yo‘l qo‘ydi. O‘rtacha(181-200) ko‘rsatkich 6,7% ni ya‘ni jami 4 nafar o‘quvchi qayd qildi. Ularda 4 ta xato kuzatildi. Qolgan o‘rtacha(201-250) va o‘rtacha(251 va undan ko‘p) ko‘rsatkichlarini qayd qilgan birorta o‘quvchi aniqlanmadi.

Ushbu test natijalarini tahlil qilib, o‘smirlarda diqqatning ko‘chishi va bo‘linishi darajasi jami 46,7% yuqori, qolgan 53,3% esa o‘rta darajada deb xulosa chiqarishimiz mumkin. Bunda biz o‘quvchilarda diqqat ko‘chishi va bo‘linishini rivojlantirish uchun korreksion mashg‘ulotlar olib borish foydali bo‘ladi deb hisoblashimiz mumkin.

Demak diagnostika bosqichida olib borilgan natijalarni umumlashtirgan holda shuni aytish mumkinki, o‘smir yoshidagi bolalarning aqliy intellekt darajasi yaxshi rivojlanmagan. Analitik va tafakkurning umumlashtirish darajasi ham yaxshi rivojlanmagan. Diqqat xususiyatlaridan uning barqarorligi va topshiriqni bajarish tezligi, hajmi va ko‘chishi yaxshi rivojlanmaganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun o‘quvchilar bilan dars jarayonlarida majburiy mashg‘ulotlarni olib borish kerak, ularning tafakkur darajasini oshirish uchun maxsus dasturlardan foydalanib korreksion faoliyat tashkil qilish kerak deb xulosa qilishimiz mumkin.

MUHOKAMA

Quyida esa metodikalarning natijalarini ko‘rsatuvchi tavsiflovchi statistika berilgan.

7-jadval

Metodikalarning natijalari bo‘yicha tavsiflovchi statistika

	N	Minimal	Maksimal	O‘rtacha qiymat	Standart og‘ish	Assimetriya	Eksess
Burdonning "Korrektura sinovi" metodikasi	60	1,00	4,00	2,6333	,71228	-,200	-,044
Diqqat hajmini tadqiq qilish testi	60	1,00	4,00	2,6333	1,20685	-,205	-1,518
Shult jadvali bo‘yicha diqqatning ko‘chishi va bo‘linishini o‘rganish	60	1,00	7,00	3,5000	1,87309	,400	-1,214
Analitik tafakkurni o‘rganish	60	2,00	5,00	4,4500	,83209	-1,388	1,030
Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida	60	,00	9,00	2,7000	2,32379	,705	-,193
R.Kettelning madaniy muhit tasiriga bogliq bo‘lmagan testi CFIT	60	4,00	8,00	7,3000	,86944	-1,434	2,553

Bizning tadqiqotimizda 60 nafar sinaluvchilar ishtirok etdi. Tadqiqotda biz Burdonning "Korrektura sinovi" metodikasi, Diqqat hajmini tadqiq qilish, Shulte jadvali bo'yicha diqqatning ko'chishi va bo'linishini o'rganish, Analitik tafakkurni o'rganish, Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida, R.Kettelning madaniy muhit ta'siriga bog'liq bo'lmagan testi (CFIT) laridan foydalandik. Malumotlarning to'g'ri o'tkazilganligini aniqlash maqsadida biz tavsiflovchi statistika tahlilini amalga oshirdik. Natijalar tahlilida quyidagilar kuzatildi:

Burdonning "Korrektura sinovi" metodikasi natijalariga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 1 ballni tashkil etsa, maksimal ball 4 ballni tashkil etdi. O'rtacha qiymat esa 2,63 ballni tashkil qilsa, standart og'ish 0,712 ballni tashkil etdi. Burdonning "Korrektura sinovi" metodikasi uchun 1,918 balldan 3,342 ballgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=-,200$) va eksess ($E=-,044$) ni tashkil etdi. Natijalar tahlilida kuchsiz ifodalangan chap tomonlama manfiy assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

Diqqat hajmini tadqiq qilish testi natijalariga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 1 ballni tashkil etsa, maksimal ball 4 ballni tashkil etdi. O'rtacha qiymat esa 2,63 ballni tashkil qilsa standart og'ish 1,206 ballni tashkil etdi. Diqqat hajmini tadqiq qilish testi uchun 1,424 balldan 3,836 ballgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=-,205$) va eksess ($E=-1,518$) ni tashkil etdi. Natijalar tahlilida kuchsiz ifodalangan chap tomonlama manfiy assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

Shulte jadvali bo'yicha diqqatning ko'chishi va bo'linishini o'rganish testi natijalariga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 1 ballni tashkil etsa, maksimal ball 7 ballni tashkil etdi. O'rtacha qiymat esa 3,500 ballni tashkil qilsa standart og'ish 1,873 ballni tashkil etdi. Diqqat hajmini tadqiq qilish testi uchun 1,63 balldan 5,87 ballgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,400$) va eksess ($E=-1,214$) ni tashkil etdi. Natijalar tahlilida kuchsiz ifodalangan o'ng tomonlama musbat assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

Analitik tafakkurni o'rganish testi natijalariga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 2 ballni tashkil etsa, maksimal ball 5 ballni tashkil etdi. O'rtacha qiymat esa 4,450 ballni tashkil qilsa, standart og'ish ,832 ballni tashkil etdi. Analitik tafakkurni o'rganish testi uchun 3,612 balldan 5,282 ballgacha me'yor bo'lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=-1,388$) va eksess ($E=1,030$) ni tashkil etdi. Natijalar tahlilida kuchsiz ifodalangan chap tomonlama manfiy assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi.

Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida testi natijalariga ko'ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 0 ballni tashkil etsa, maksimal ball 9 ballni tashkil

etdi. O‘rtacha qiymat esa 2,70 ballni tashkil qilsa standart og‘ish 2,323 ballni tashkil etdi. Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida testi uchun 0,377 balldan 5,023 ballgacha me‘yor bo‘lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=,705$) va eksess ($E=-,193$) ni tashkil etdi. Natijalar tahlilida kuchsiz ifodalangan o‘ng tomonlama musbat assimetriya va kuchsiz manfiy eksess kuzatildi.

R.Kettelning madaniy muhit ta‘siriga bog‘liq bo‘lmagan testi (CFIT) natijalariga ko‘ra sinaluvchilarimiz tomonidan olingan minimal ball 4 ballni tashkil etsa, maksimal ball 8 ballni tashkil etdi. O‘rtacha qiymat esa 7,30 ballni tashkil qilsa standart og‘ish ,869 ballni tashkil etdi. R.Kettelning madaniy muhit ta‘siriga bog‘liq bo‘lmagan testi uchun 6,431 balldan 8,169 ballgacha me‘yor bo‘lib hisoblanar ekan. Assimetriya ($A=-1,434$) va eksess ($E=2,553$) ni tashkil etdi. Natijalar tahlilida kuchsiz ifodalangan chap tomonlama manfiy assimetriya va kuchsiz musbat eksess kuzatildi.

Quyida biz Spirmen mezoni bo‘yicha 60 nafar o‘quvchida qilingan metodikalar o‘rtasidagi korrelyatsion tahlilni ko‘rsatib o‘tamiz.

Spirmen mezoni bo‘yicha korrelyatsion tahlil

8-jadval

Metodikalar o‘rtasidagi o‘zaro korrelassion tahlil

	Burdonning Korrektura sinovi metodikasi	Diqqat hajmini tadqiq qilish	Shult jadvali bo‘yichadiqq atning ko‘ chishi	Analitik tafakkurni o‘rganish	Umumlashtirish aqliy operatsiyasifatida	R.Kettelning madaniy muhit tasiriga bog‘ liq bo‘lmagan testi CFIT
Burdonning Korrektura sinovi metodikasi	1	-,120	,051	,140	-,068	,153
Diqqat hajmini tadqiq qilish		1	,022	,184	-,058	,042
Shult jadvali bo‘yicha diqqatning ko‘chishi			1	,136	-,331(**)	-,021
Analitik tafakkurni o‘rganish				1	-,025	,513(**)
Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida					1	,121
R.Kettelning madaniy muhit tasiriga bogliq bo‘lmagan testi CFIT						1

Izoh: ** $p < 0,01$.

Ushbu tadqiqot qismida metodikalar ichida o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash maqsadida korelyatsion tahlilni amalga oshirdik. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, “Shulte

jadvali bo'yicha diqqatning ko'chishi va bo'linishini o'rganish" testi va Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida testlari o'rtasida ishonchli manfiy korrelyatsiya kuzatildi.

Shuningdek Analitik tafakkurni o'rganish testi va R.Kettelning madaniy muhit ta'siriga bog'liq bo'lmagan testlari o'rtasida musbat korrelyatsiya aniqlandi.

"Shulte jadvali bo'yicha diqqatning ko'chishi va bo'linishini o'rganish" testi va Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida testlari o'rtasida ishonch darajasidagi manfiy korrelyatsiya kuzatildi ($r=-,331$; $p<0,01$). Demak sinaluvchilarda diqqat ko'chuvchanligi oshishining aqliy operatsiyalarda umulashtirish qobiliyatining sustlashishiga olib kelar ekan.

Analitik tafakkurni o'rganish testi va R.Kettelning madaniy muhit ta'siriga bog'liq bo'lmagan testlari o'rtasida ishonch darajasidagi musbat korrelyatsiya aniqlandi ($r=,513$; $p<0,01$).

XULOSA

Demak yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, o'smirlarda o'tkazilgan Burdonning "Korrektura sinovi" metodikasi, Diqqat hajmini tadqiq qilish, Shulte jadvali bo'yicha diqqatning ko'chishi va bo'linishini o'rganish, Analitik tafakkurni o'rganish, Umumlashtirish aqliy operatsiya sifatida, R.Kettelning madaniy muhit ta'siriga bog'liq bo'lmagan testi (CFIT) lari natijalarida hammasida sinaluvchilar past natijani ko'rsatishdi.

Spirmen mezoni bo'yicha korrelyatsion tahlilga ko'ra, o'quvchilarda diqqatning ko'chishi va bo'linishi oshsa yoki kamaysa unda o'quvchilardagi tafakkurning umumlashtirish darajasi teskari shaklda korrelyatsion bog'liqlikka ega bo'ladi ya'ni oshsa kamayadi yoki kamaysa oshadi. O'quvchilarning analitik tafakkuri va intellekt koeffisienti o'rtasida esa musbat korrelyatsiya bo'lib, bu ulardan birining oshishi ikkinchisini ham oshishiga olib keladi deb xulosa qilishga asos bo'ladi.

O'smirlarda tafakkur va diqqatni o'rganish natijalar tahlilidan ko'rinib turibdiki, ularda bu kognitiv jarayonlar darajasi ancha past darajada ekan.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, o'smirlarda tafakkurni va diqqat xususiyatlarini rivojlantirish uchun korreksion dastur o'tkazilishi zarur deb xulosa qilishimiz mumkin. Bunday korreksion dasturni tuzishda o'smirlarning tafakkur va diqqat xususiyatlarini hisobga olish kerak albatta.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. F.I.Xaydarov, N.I.Xalilova. Umumiy psixologiya/darslik /. Toshkent. 2009 yil.
2. E G‘oziyev. Ontogenez psixologiyasi/darslik/.Toshkent:”NIF MSH”, 2020, 288 bet.
3. Kholodnaya MA Psychology of conceptual thinking: From conceptual structures to conceptual abilities. Moscow: Izd-vo «Institut psikhologii RAN», 2012. 288 p. [in Russian].
4. Shavaliyeva G.T., Smirnova D.D., Shavaliyeva I.N. Features of thinking in adolescence. Modern science: topical issues, achievements and innovations: collection of articles. Art. II Int. scientific-practical conf. At 4 part, Part 4. Penza: MTSNS «Nauka i Prosveshcheniye», 2018. P. 142-144. [in Russian].
5. Особенности развития и воспитания детей с недостатками слуха и интеллекта// Под ред. Л .П. Носковой. - М., 1994. С.26